

UDK: 911.3:30/33:66.041(575.1)

Xidoyatxon Abdinazarova,

Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, g.f.f.d (PhD)

**FARG‘ONA VILOYATIDA SANOATNI HUDUDIIY JOYLASHUVINING
NAZARIY ASOSLARI**

Annotatsiya. Maqolada sanoatni hududiy joylashtirishning nazariy masalalari Farg‘ona viloyati misolida yoritilgan. Unda sanoatni hududiy joylashtirish bo‘yicha xorijiy, MDH va O‘zbekistonlik olimlarning olib borgan tadqiqotlari yoritilgan. Tadqiqot so‘nggida ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, joylashuv nazariyalari, Farg‘ona viloyati, sanoat shtandorti, o‘sish qutblari

Хидоятхон Абдиназарова,

Доцент Кокандского государственного университета,

кандидат географических наук

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО
РАЗМЕЩЕНИЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ**

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические вопросы территориального размещения промышленности на примере Ферганской области. Освещены исследования, проведенные зарубежными, ближневосточными и узбекскими учеными по территориальному размещению промышленности. В конце исследования разработаны научные выводы.

Ключевые слова: промышленность, теории размещения, Ферганская область, промышленный стандарт, полюса роста

Khidoyatkxon Abdinazarova,

Associate Professor, Kokand State University, PhD

**THEORETICAL BASIS OF TERRITORIAL LOCATION OF
INDUSTRY IN FERGANA REGION**

Annotation. The article discusses the theoretical issues of territorial location of industry using the example of Fergana region. It covers the research conducted by foreign, CIS and Uzbek scientists on the territorial location of industry. At the end of the study, scientific conclusions were developed.

Keywords: industry, location theories, Fergana region, industrial standard, growth poles

Kirish. Farg'ona viloyati O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlaridan biri bo'lib, uning sanoat tarkibi va geografik joylashuvi mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hududda sanoat tarmoqlarining joylashuvi turli nazariy yondashuvlar orqali tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda Farg'ona viloyatining sanoatni hududiy joylashtirish bo'yicha nazariy asoslari o'rganilib, bu borada bir nechta klassik va zamonaviy nazariyalar mavjud.

Asosiy qism. Sanoatni hududiy joylashtirish masalalari ko'plab olimlar shug'ullanganlar. Jumladan, **Alfred Veberning sanoat joylashuvi nazariyasi:** Ushbu nazariyaga ko'ra, ishlab chiqarish korxonalarida xom ashyo manbalariga, mehnat resurslariga va bozor talabiga mos ravishda joylashtirilishi kerak. Farg'ona viloyatida neftni qayta ishlash, yengil sanoat va kimyo sanoati xom ashyo va mehnat resurslariga asoslanib joylashgan.

Neftni qayta ishlash sanoati: Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi (FNQIZ) viloyatning eng yirik sanoat korxonalaridan biri hisoblanadi. Zavod neft mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan shug'ullanadi. FNQIZ transport yo'llariga yaqin joylashgan bo'lib, bu mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga yetkazib berishni osonlashtiradi.

Yengil sanoat: Marg'ilon va Qo'qon shaharlarida yengil sanoat yaxshi rivojlangan. Ayniqsa, paxta tozalash va to'qimachilik korxonalarida viloyatda keng tarqalgan. Ushbu sanoat tarmog'i asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga, ya'ni paxtaga asoslanadi. Ishlab chiqarish jarayonida mahalliy mehnat resurslari faol jalb qilinadi, bu esa ish o'rinlarini yaratish va hudud iqtisodiyotini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kimyo sanoati: Fargʻona viloyatida kimyo sanoati xom ashyo bazasiga mos ravishda joylashtirilgan. Kimyo zavodlari neft va gaz sanoati mahsulotlarini qayta ishlash bilan shugʻullanadi. Bundan tashqari, bu tarmoq uchun zarur boʻlgan minerallar va tabiiy gaz resurslari mavjudligi sanoatning rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Sanoat korxonalarini joylashtirishda **V. Kristallarning markaziy joylashuv nazariyasi** ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyada iqtisodiy hududlarning markazlari va periferik hududlari boʻyicha sanoatning joylashuvi tushuntiriladi. Fargʻona viloyatida Fargʻona shahri asosiy sanoat markazi sifatida ajralib turadi.

Fargʻona shahri sanoat markazi sifatida *birinchi navbatda*, viloyatning **asosiy sanoat markazi** boʻlib, bu yerda yirik sanoat korxonalari joylashgan. Shaharning rivojlanishi transport infratuzilmasining yuqori darajada ekanligi, malakali mehnat resurslarining mavjudligi va sanoatning diversifikatsiyalashuvi bilan bogʻliq. *Ikkinchidan*, shahar **qoʻshni hududlar bilan integratsiyalashgan hudud hisoblanadi**. Shahar Qoʻqon, Margʻilon va Andijon kabi yirik sanoat markazlari bilan uzviy bogʻlangan. Ushbu shaharlar oʻzaro ishlab chiqarish va logistika jihatidan hamkorlik qilgan holda faoliyat yuritadi. *Uchinchidan* esa, **transport va logistika ustunligi boʻyicha ham shahar oʻziga xos** boʻlib, shaharning temir yoʻl va avtomobil transporti boʻyicha rivojlanganligi bu hududga sanoat korxonalarining joylashishini ragʻbatlantiradi.

Sanoat korxonalarini joylashtirishda **F. Perruning oʻsish qutblari nazariyasi** ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu nazariyaga koʻra, rivojlangan sanoat markazlari atrofida iqtisodiy oʻsish yuzaga keladi. Sanoatni hududiy tashkil etish boʻyicha katta salmogʻga ega fikr va gʻoyalar bergan olimlardan biri fransiyalik olim Fransua Perrudir. U XX-asrning 50 yillarida “Oʻsish qutublari” nazariyasiga asoslangan asar yozadi [2, 4, 6]. Borliqda iqtisodiy makon yuzaga kelishi oʻziga xos kuch tufayli boʻladi va uning namoyon boʻlishi turlichadir. Uning intensivligi bir maromda ketmaydi, unga markazlashgan va markazdan qochuvchi kuchlar ham taʼsir qilishini taʼkidlaydi. Bu nazariya, birinchi navbatda

iqtisodiyotda yangi tovar va xizmatlarni yaratadigan yetakchi tarmoqlarning yetakchi roli g'oyasiga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Iqtisodiy makonning yetakchi tarmoqlar joylashgan markazlari va sohalari ishlab chiqarish omillari uchun jozibador qutblarga aylanadi, chunki ular eng samarali foydalanishni ta'minlaydi va bu korxonalarining konsentratsiyaga va iqtisodiy o'sish qutblarining shakllanishiga olib keladi¹. F. Perru sanoat tarmoqlarining o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlari va rivojlanish bosqichlariga qarab ularni uch guruhga ajratdi:

- birinchi guruhga eski sanoat tarmoqlaridan ko'mir, to'qimachilik, kemasozlik;
- ikkinchi guruhga tayyor iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar;
- uchinchi guruhga esa, rivojlanishning zanjirli reaksiyasini keltirib chiqaradigan tarmoqlar-kimyo, mashinasozlik, elektr energetika va shu kabilarni kiritdi.

F. Perruning fikricha, mazkur iqtisodiyot tarmoqlari o'sish qutblarini yuzaga keltiradi va o'z o'rnida biri-birini to'ldiradi hamda mazkur sanoat tarmoqlarini "sanoat majmuasi" deb ataydi [60]. Farg'ona viloyatidagi Qo'qon, Marg'ilon va Farg'ona shaharlari sanoat qutblari sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan:

Qo'qon shahri. Qo'qon yirik sanoat markazi bo'lib, bu yerda mashinasozlik, qishloq xo'jaligi texnikasi va kimyo sanoati kabi tarmoqlar ustun darajada taraqqiy etgan. Shaharning sanoat infratuzilmasi ham yaxshi rivojlangan bo'lib, logistika imkoniyatlari yuqori deyish mumkin.

Marg'ilon shahri. Marg'ilon to'qimachilik sanoati bilan mashhur bo'lib, ipak ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi hudud hisoblanadi. Hududda ishlab chiqarish jarayoni asosan mahalliy resurslarga tayanadi.

Farg'ona shahri. Sanoatning muhim markazlaridan biri bo'lib, bu yerda yirik neftni qayta ishlash va kimyo sanoati korxonalari mavjud. Hudud sanoat qutblaridan biri sifatida viloyatning iqtisodiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shib kelmoqda.

Sanoat tarmoqlarini hududiy tashkil etishda yana bir iqtisodchi olim M. Porterning hissasi katta, olim sanoat tarmoqlarini "klaster" usulida joylashtirish

haqida fikr yuritadi va klasterga “ma’lum bir hududda faoliyat ko’rsatadigan, geografik jihatdan o’zaro bog’liq bo’lgan, umumiy faoliyat turi bilan ajralib turadigan va bir-birini to’ldirib turadigan korxonalar hamda ularga tegishli tashkilotlar guruhi” deya ta’rif berdi [2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10]. Olim yuzdan ortiq sanoat tarmoqlarini o’ziga xos xususiyatlarini o’rgandi, va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda bugungi kun talabiga javob bera oladigan fikrlarni berib o’tdi. Sanoatni hududiy tashkil etish bo’yicha katta salmog’ga ega fikr va g’oyalar bergan olimlardan biri fransiyalik olim Fransua Perrudir. U XX-asrning 50 yillarida “O’sish qutublari” nazariyasiga asoslangan asar yozadi [54,60]. Borliqda iqtisodiy makon yuzaga kelishi o’ziga xos kuch tufayli bo’ladi va uning namoyon bo’lishi turlichadir. Uning intensivligi bir maromda ketmaydi, unga markazlashgan va markazdan qochuvchi kuchlar ham ta’sir qilishini ta’kidlaydi. Bu nazariya, birinchi navbatda iqtisodiyotda yangi tovar va xizmatlarni yaratadigan yetakchi tarmoqlarning yetakchi roli g’oyasiga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Iqtisodiy makonning yetakchi tarmoqlar joylashgan markazlari va sohalari ishlab chiqarish omillari uchun jozibador qutblarga aylanadi, chunki ular eng samarali foydalanishni ta’minlaydi va bu korxonalarning konsentratsiyaga va iqtisodiy o’sish qutblarining shakllanishiga olib keladi¹. F. Perru sanoat tarmoqlarining o’zigagina xos bo’lgan xususiyatlari va rivojlanish bosqichlariga qarab ularni uch guruhga ajratdi:

- birinchi guruhga eski sanoat tarmoqlaridan ko’mir, to’qimachilik, kemasozlik;
- ikkinchi guruhga tayyor iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar;
- uchinchi guruhga esa, rivojlanishning zanjirli reaksiyasini keltirib chiqaradigan tarmoqlar-kimyo, mashinasozlik, elektr energetika va shu kabilarni kiritdi. F. Perruning fikricha, mazkur iqtisodiyot tarmoqlari o’sish qutblarini yuzaga keltiradi va o’z o’rnida biri-birini to’ldiradi hamda mazkur sanoat tarmoqlarini “sanoat majmuasi” deb ataydi[60].

Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirish masalasi Rossiyalik olimlar tomonidan, ishlab chiqarish kuchlari va alohida ahamiyatga tarmoqlarning

tarqalishi bilan bog'liq masalalarni o'rganishga qaratilgan edi. Rus olimlari hududiy ishlab chiqarish majmualari (HICHM), hududiy ishlab chiqarish tizimlari hamda hududiy majmualari (N.N. Kolosovskiy, Yu.G. Saushkin, I.M. Maergoyz, M.K. Bandman, A.G. Granberg, A.T. Xrushev, I.V. Plipenko, Sharigin va boshqalar) terminlarini fanga olib kirdi va o'rgandilar [2, 3, 4]. Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirish va tashkil etish nazariyasining asosiy o'zak tushunchasi bu, hududiy ishlab chiqarish majmuasidir (HICHM). HICHM 1920-1930-yillarda Rossiya hududini elektrlashtirish davlat rejasi doirasida shakllantirildi va ishlab chiqarishga joriy qilinishida N.N. Kolosovskiy asosiy rol o'ynadi [8, 9, 12]. Urushdan keyin sobiq Ittifoq hududlarini rayonlashtirish bilan jiddiy shug'ullanib, har bir iqtisodiy hududni ishlab chiqarish tuzilishini (sikllar va ularning xom-ashyolari va energiya bazalari kombinatsiyasi bilan) tashkil etadigan energiya ishlab chiqarish sikllari nazariyasini ishlab chiqdi [3, 5]. Biroq, yuqoridagi rus olimlarining nazariy qarashlari amaliyotda o'z aksini ko'p ham topmadi. Bunga sabab sobiq Ittifoqda bozor tamoyillari ishlamas va uning o'rnida rejali tizim mavjud edi.

Klaster g'oyasini amerikalik olim M. Porter ilgari surdi [2, 3, 4, 6, 8]. Mohiyatan klaster tushunchasi HICHM, energiya ishlab chiqarish siklli g'oyalariga o'xshab ketadi, klaster hududda barcha korxonalar va tashkilotlarning ma'lum bir sohada birlashib natijalarga erishishi, uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida mujassamlashuvi, birgalikda harakat qilishi demakdir.

Respublikamizda ham sanoatni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga doir masalalari S.K. Ziyodullayev, Z.M. Akromov, N.S. Sultonov, A.S. Soliyev, A.A. Qayumov, O. Abdullayevlarning ilmiy asarlarida chuqur o'rganildi. Bu olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati rejali iqtisodiyot mavjud bo'lgan davrga to'g'ri kelganligini aytib o'tish lozim. Yuqoridagi fikrning isboti sifatida, O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli sobiq ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish kengashida (SOPS), o'tgan asrning o'rtalarida ilmiy tadqiqotlar natijasida rayonlarning kompleks muammolari tushunchasi yaratilgan edi. Bu o'zining geografik o'rnini va ma'muriy-hududiy tuzilishiga ko'ra betakror

bo'lgan Farg'ona vodiysi uchun ham ayniqsa ahamiyatli edi [6, 7, 9]. Taniqli olim N.N. Sultonov o'z ilmiy izlanishida sanoatni hududiy tashkil etish "...sezilarli o'zaro barqaror aloqalar va ishlab chiqarishning bir me'yordaligi, transport xarajatlarini qisqartirish, resurs salohiyatidan oqilona foydalanish orqali tarmoqlar va ishlab chiqarish turlarining muayyan hududda tashkil etilishini tushunmoq kerak" degan fikrlarni aytib o'tadi. Sanoatni tarmoqlarini hududiy tashkil etish va rivojlantirishda mustaqillikdan so'ng S. Xaydarovning olib borgan tadqiqot ishlari salmoqli bo'ldi. Ilmiy tadqiqot mazmuni, O'zbekistonda sanoat tugunlarining shakllanishi va rivojlanishini Farg'ona iqtisodiy rayoni misolida ochib berishga harakat qildi. Olim, o'z ishlarida sanoat tugunlarining shakllanish va rivojlanish chegaralarini mintaqaning aholisi zich joylashgan Farg'ona vodiysi sharoitida aniqladi. Bozor munosabatlariga o'tish davri o'zining kutilmagan natijalar keltirishi bilan hudud iqtisodiyotini tahlikaga soladi. Ayni shu davrda, D.R. Ro'zmetov O'zbekiston to'qimachilik sanoatining rivojlanishi va hududiy tarkibini takomillashtirishni o'z ilmiy ishida yoritib berdi. Olim to'qimachilik sanoatining jahon tajribasi va O'zbekistonda rivojlanish xususiyatlari, tarmoqlar va hududiy tarkibi, ixtisoslashuv darajasini tadqiq etgan [12]. Sh.S. Jo'rayev esa, O'zbekiston sanoati rivojlanishining hududiy xususiyatlari mavzusida ilmiy izlanish olib bordi. Tadqiqot yo'nalishi respublika iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish sharoitida sanoatning tarmoqlar va hududiy tuzilmasidagi o'zgarishlarni tahlil qildi. Olim tomonidan respublika sanoat tarmoqlarini hududiy tashkil etish va sanoatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi mahalliy omillardan iqtisodiy resurs salohiyatini hisobga olish orqali, mamlakat sanoatini hududiy tarkibini takomillashtirishni asoslagan [3, 4]. X.O. Abdinazarova kimyo sanoatini rivojlantirish va hududiy tarkibini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishi olib borgan. Tadqiqotda Farg'ona vodiysi kimyo sanoatini joylashtirish va takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bergan. Tadqiqotchi ishning ahamiyati, kimyo sanoati turli tarmoqlari korxonalarini joylashtirish omillarining (xom ashyo, yoqilg'i-energetika, mehnat resurslari, iste'mol, texnologik, ekologik) ta'sir darajasi, Farg'ona iqtisodiy rayonining tabiiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda

aniqlashtirilganligidir [11, 12]. Sanoatni hududiy tashkil etish va takomillashtirish yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan yana biri A.G. Abdullaevga tegishli. Tadqiqotchi tomonidan “Oziq-ovqat sanoati rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy geografik jihatlari” mavzusida ilmiy izlanish olib borgan. Izlanishning o‘ziga xos jihati, iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, hududiy tarkibini takomillashtirish, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [12].

Xulosa. Umuman olganda sanoat tarmoqlarini hududiy joylashtirishning ko‘plab nazariyalari ishlab chiqilgan. Ular orasida xorijiy, MDH va O‘zbekistonlik olimlarni olib borgan tadqiqotlari katta ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2024 yil, 7 avgustdagi “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 286- sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-5834287>.

2. Abdinazarova, H. O. "Фарғона иқтисодий районида ташкил этилган кимё саноат корхоналар фаолиятининг географик тавсифи." *Экономика и социум* 3-2 (94) (2022): 351-356. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=48281612>.

3. Abdinazarova, X. O. "Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan." *Экономика и социум* 9 (76) (2020): 3-7.

4. Abdinazarova X.O. Kimyo sanoati geografiyasi (Farg‘ona iqtisodiy rayoni misolida). Monografiya. – Qo‘qon “Art-Press” 2023 y., 120 b.

5. Abdinazarova Xidoyatxon, and Mo‘minov Doniyor. O‘zbekiston farmasevtika sanoatining rivojlanish tendensiyalari va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar. “*Journal of research and innovation*” 2.3 (2024): 54-59.

6. Abdinazarova, X. O., D. Mo‘minova, and M. Dehqonova. "O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATINING TUTGAN O‘RNI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR". *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 2. No. 12. 2023.

7. Boasson V., MacPherson A. The role of geographic location in the financial and innovation performance of publicly trade pharmaceutical companies: empirical evidence from the United States. // *Environment and Planning A* 2001, volume 33, pp. 1431-1444. <http://journals.sagepub.com/doi/10.1068/a3431>.

8. Жўраев Ш.С. Ўзбекистонда саноатни барқарор ривожлантиришнинг минтакавий хусусиятлари. Монография. – Т.; 2016. – Б. – 24.

9. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon, and Abduvohidova Zumradxon. "Sectoral and Regional Characteristics of the Chemical Industry in Uzbekistan." *American Journal of Social and Humanitarian Research* 3.11 (2022): 333-338.

10. Oripovna, A. K. "The Importance of Establishing a Cluster System in Improving the Territorial Structure of the Chemical Industry of Fergana Economic District." *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences* 2.6 (2022): 135-140.

11. Komilova N., and Abdinazarova. H. O. "The role and geographical features of the chemical industry in the development of the economy of Uzbekistan." *Экономика и социум* 5-1 (84) (2021): 248-255.

12. To‘xliyev N. O‘zbek modeli: taraqqiyot tamoyillari. O‘zME. 2014 yil.